



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MONOPOLIYAGA QARSHI KURASHISH QO'MITASI  
XORAZM VILOYATI HUDUDIY BOSHQARMASI

ANTIMONOPOLY COMMITTEE  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
KHOREZM REGIONAL DEPARTMENT



220100, Urganch sh., Al-Xorazmiy ko'chasi, 23-uy, Tel: 62-228-51-15, Tel: 62-223-17-33  
e-mail: kh@antimon.gov.uz, e-xat: khantimon@exat.uz, www.antimon.gov.uz

2022-yil 24-oktabr

№ 1167/03-04

Bog'ot tuman obodonlashtirish  
boshqarmasiga

*Ma'lumot uchun:* Bog'ot tuman bo'yicha g'aznachilik  
bo'linmasiga

Hududiy boshqarma tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining topshirig'iga muvofiq, maxsus axborot portaliga joylashtirilgan hujjatlarga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirilishida "Raqobat to'g'risida"gi Qonun hujjatlariga rioya qilinishi yuzasidan monitoring o'tkazilmoqda.

Monitoring davomida Bog'ot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 21.10.2022-yilda 162792-lot raqami bilan Bog'ot tuman Yangiqadam mahallasi, Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rakam, Murabbiylar, Xiva 5-tor, Ziyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash uchun tanlov savdosi o'tkazilganligi kuzatildi.

Tanlov bayonnomasi o'rganilganda, Xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilarni texnik qismi bo'yicha hujjatlari 8 ta mezon bo'yicha baholanganligi kuzatildi.

**Birinchi mezon** bo'yicha buyurtmachi tomonidan "*Qurilishda foydalananiladigan mashinu va mexanizmlar ro'yxati*" to'g'risida talab qo'yilgan hamda bu uchun maksimal 10 ball qo'yilishi belgilangan.

Jumladan, Xarid komissiyasi tomonidan ushbu talab bo'yicha, "XIVA STANDART PLYUS" MChJ va "ARXITEKTOR QURUVCHI" xususiy korxonasi so'ralgan hujjatlarni to'liq taqdim qilgan bo'lsalarda, "XIVA STANDART PLYUS" MChJga 10 ball va "ARXITEKTOR QURUVCHI" xususiy korxonasiga esa 8 ball qo'yilganligi kuzatildi.

Xuddi yuqoridaiki kabi holatlar **ikkinchi, uchinchi va oltinchi mezonlarda** ham takrorlangan.

Bog'ot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 162792-lot raqami bilan Bog'ot tuman Yangiqadam mahallasi, Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rakam, Murabbiylar, Xiva 5-tor, Ziyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash uchun o'tkazilgan tanlov savdosi qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazilgan taqdirda, ikkala ishtirokchi ham ("XIVA STANDART PLYUS" MChJ va "ARXITEKTOR QURUVCHI" xususiy korxonasi) maksimal 60 ball to'plagan bo'lar edi va "ARXITEKTOR QURUVCHI" xususiy korxonasi past narx taklif qilganligi sababli, uning taklifi tanlov g'olibi deb topilishi mumkin edi.

Bu bilan, Bog'ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasi 1-qism 2-xatboshi "savdolar o'tkazishning qonunchilikda belgilangan tartibini buzish taqilanganadi" va 6-xatboshi "savdolarning bitta yoki bir nechta ishtirokchisiga savdolarda qatnashish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish, shu jumladan axborotdan foydalanish orqali imtiyozli shart-sharoitlar yaratib berish taqilanganadi" talablariga rioya qilinmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi 3-qismiga muvofiq, davlat xaridlaring xolisligi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta'minlashga, davlat xaridlari subyektlari o'rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg'arazlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga, davlat xaridlari jarayonida shikoyatlar, nizolar va kelishmovchiliklarni ko'rib chiqishning hamda tegishli chora-tadbirlar ko'rishning ochiq, oshkora va tortishuv mexanizmlariga asoslanadi.

Shuningdek, Qonunning 46-moddasi 5 va 6-xatboshilariga asosan davlat xaridlari jarayonida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo'lмаган usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta'sir o'tkazishga, davlat xaridlarda ishtirokchilarning ishtirok etishi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo'yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo'l qo'ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga, davlat xaridlari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonning matniga ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqoridagilarga asosan, Sizdan Bog'ot tuman Yangiqadam mahallasi, Xiva 2-tor, Nurqadam, Ko'rkam, Murabbiylar, Xiva 5-tor, Ziyo ko'chalari ichki xo'jalik yo'llarini joriy ta'mirlash uchun 162792-sonli lot raqami bilan o'tkazilgan tanlov savdosini bekor qilinishini ta'minlashningizni va amalga oshirilgan ishlarni to'g'risidagi ma'lumotlarni **bir kunlik muddatda** hududiy boshqarmaga taqdim qilishingizni, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq qayta tanlov savdosi o'tkazishingizni so'raymiz.

**Eslatma:** Hududiy boshqarmaga axborotni taqdim etmaganlik yoki o'z vaqtida taqdim etmaganlik, noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etganlik uchun qonunchilikda nazarda tutilgan va (yoki) MJtKga muvofiq choralar qo'llaniladi.

Hududiy boshqarma  
boshligi o'rinnbosari



A.Salimov